

## “ILM YO’LI” VARIATIV O’QUV DASTURIDA INKLUYUZIV TALIMNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Bolibekova Maftuna Shermuxammedovna

Sirdaryo Pedagogika kolleji maxsus fan o’qtuvchisi (Sirdaryo,O’zbekiston)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Ilm yo’li” variativ o’quv dasturida inklyuziv ta’limning didaktik tamoyillari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** “Ilm yo’li”, inklyuziv ta’lim, texnologiya, metod, ta’lim, tarbiya, tajriba.

Jahonda ijtimoiy va ta’limiy muammolarning amaliy yechimini topishda maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim va tarbiyaning integratsiyalashuviga bo’lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi.

O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo’li” variativ dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi, O’zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, maktabgacha ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi asosida ishlab chiqildi.

“Ilm yo’li” variativ dasturi bolaning to’laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o‘qishini, uning mакtabda ta’lim olishga samarali tayyorlanishini ta’minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat bo‘lib sanaladi.

**Inklyuziv ta’lim** muayyan pedagogik tamoyillarga amal qildishni talab etadi.Ushbu ta’lim-ta’lim-tarbiyaning mutlaqo yangi tizimi. Bu hol pedagog tomonidan ta’lim jarayoninini tashkil etishda har bir bolaning fiziologik va ruhiy rivojlanishi, ayniqsa, o‘ziga xos bolalarning individual xususiyatlarini e’tiborga olinishini anglatadi

«Ilm yo’li» variativ dasturi mualliflarining nazarida, maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya vazifasini amalga oshirish bilan bирgalikda, bola hayotiy faoliyatining asosiy sohasi hamdir. Shu munosabat bilan, mazkur dasturda aynan pedagog har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish huquqini ta’minlashi lozim degan g‘oyani ilgari suradi.

Bu jarayonda bolalarning zaif toifasiga alohida e’tibor talab etiladi. Jamoada bolalar bir-biri bilan o‘zaro aloqa bog‘lashga, jinsi, irqi, millati, madaniyati, tili, e’tiqodi, yoshi, alohida talab-ehtiyojlari, oilaning tuzilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat’i nazar, boshqa kishilar bilan do’stona munosabatlar o‘rnatishga o‘rganadi.

«Ilmyo’li» variativ dasturi inklyuziv ta’limning quyidagi didaktik **tamoyillariga** tayanadi:

- insонning qadr-qimmati uning qobiliyati va erishgan yutuqlari bilan belgilanmaydi;
- har bir insон his etish va fikr yuritishga qodir;
- har bir insон muloqot yuritishga va uning fikrlari e’tirof etilishiga haqlidir;
- barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi;
- chinakam ta’lim muayyan o‘zaro munosabatlar doirasidagina amalga oshirilishi mumkin;
- barcha insонlar qo’llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do’st bo‘lishga ehtiyoj sezadi;
- ta’lim olayotganlar uchun ijobjiy yutuqlarga erishish qo‘lidan kelmaydigan ishdan ko‘ra, uddalay oladigan ishda ko‘proq namoyon bo‘ladi;
- rang-baranglik insон hayotini boyitadi;
- bir-birimizdan farq qilishimiz va har birimiz individual shaxs ekanimizni tan olish;

- rivojlantiruvchi dasturlarning individuallashuvini ta'minlash, ya'ni dasturlarni har bir bolaning birgalikdagi faoliyat doirasidagi talab-ehtiyojlari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarning umumiy maqsadlarini e'tiborga olgan holda tuzish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning o'qishini, ularning rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash borasida qimmatli uslubiy tajriba to'plash;
- barcha bolalar bir xil taqdirlanishi lozim;
- yosh xususiyatlarga mos bo'lgan umumiy o'quv rejasidan foydalana olish imkoniyatini yaratadigan ta'limning differensiyallashgan strategiyalariga tayanish;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti va qisqa muddatli guruhlarni bolaning talab-ehtiyojlariga uzlusiz moslashuvini ta'minlash;
- bolalarni bir yillik majburiy maktabga tayyorlash bo'yicha guruuhlar va maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning talab-ehtiyojlariga doimiy moslashtirilishini ta'minlash.

Inklyuziv ta'lim prinsipial jihatdan yangicha tizim bo'lib sanaladi. Bu shuni anglatadiki, bunda pedagoglarga ta'lim jarayonini tuzib chiqishda alohida olingan bolaning, ayniqsa, notipik rivojlanishga ega bolalarning fiziologiyasi va psixikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladigan individual o'ziga xosliklarini hisobga olishlari kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda «Ilm yo'li» variativ dasturi inklyuziv ta'limning didaktik tamoyillariga tayanadi: insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va erishgan yutuqlari bilan belgilanmaydi; har bir inson his etish va fikr yuritishga qodir; har bir inson muloqot yuritishga va uning fikrlari e'tirof etilishiga haqlidir; barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi; chinakam ta'lim muayyan o'zaro munosabatlar doirasidagina amalga oshirilishi mumkin; barcha insonlar qo'llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do'st bo'lishga ehtiyoj sezadi; ta'lim olayotganlar uchun ijobiylar yutuqlarga erishish qo'lidan kelmaydigan ishdan ko'ra, uddalay oladigan ishda ko'proq namoyon bo'ladi; rang-baranglik inson hayotini boyitadi va boshqa tamoyillar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 2014. yil,
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –T., 2020 yil, 20-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5198-sen farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydag'i "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-sen Qarori
5. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. Mualliflar:I.B.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova.-Toshkent,2018.-59 S
6. "Ilm yo'li" variativ dastur 6 7 yoshli bolalarni matab ta'limiga tayyorlash.-Toshkent 2019
7. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan..fals dok. (PhD) – T., 2019.